

PSIXOTROP MODDALARNING ORGANIZMGA TA’SIRI

Anvarjonova Sabina Ulug`bek qizi

**Andijon Davlat Universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti Bilogiya yo’nalishi
305-guruh talabasi**

Annotatsiya: Preparat psixotrop vositalarning yangi sinfi, tuzilishi jihatdan benzodiazepinlar va barbiturat-lardan farq qiluvchi, siklopirrolonlarning vakili hisoblanadi. Zopiklonni sedativ-uxlatuvchi ta’siri markaziy nerv tizimidagi GAMK reseptor kompleksdagi bog‘lanish joylariga yuqori darajadagi yaqinligi bilan bog‘liq.

Kalit so`zlar: oliy nerv,Psixostimulator,Psixosedativ, sedative,neyroptiklar

Abstract: The drug is a representative of cyclopyrrolones, a new class of psychotropic drugs, structurally different from benzodiazepines and barbiturates. The sedative-hypnotic effect of zopiclone is due to its high affinity to binding sites in the GAMK receptor complex in the central nervous system.

Key words: higher nerve, psychostimulant, psychosedative, sedative, neuroptics

Резюме: Препарат является представителем циклопирролонов — нового класса психотропных средств, структурно отличающегося от бензодиазепинов и барбитуратов. Седативно-снотворное действие зопиклона обусловлено его высоким сродством к сайтам связывания в рецепторном комплексе ГАМК в центральной нервной системе.

Ключевые слова: высший нерв, психостимулятор, психоседативный препарат, седативный препарат, нейроптики.

Psixotrop dori vositalari insonning oliy nerv faoliyatiga tanlab ta’sir etib, kayfiyat, ruhiy-emotsional va boshqa holatlarini o’zgartiradigan preparatlarni o’z ichiga oladi. Ular ta’sir turi, mexanizmi, ishlatilishi va boshqa ko’rsatgichlari jihatidan har xil farmakologik guruhga mansub bo’lib, turli kimyoviy sinflarga kiradi. Psixotrop moddalar ta’sir etish xiliga qarab ikki guruhga bo’linadi:

1. Psixosedativ vositalar
2. Psixostimulator vositalar

Psixosedativ vositalar

Psixosedativ vositalar deb, insonning ruhiy-emotsional qo’zg’alish holatiga tinchlantiruvchi ta’sir etuvchi dori vositalariga aytiladi. Bu guruh preparatlari asosan, ruhiy va emotsional tizim faoliyatining buzilishi natijasida kelib chiqadigan o’zgarishlarida namoyon bo’lib, ta’siri ko’proq bilinadi.

Bu preparatlar ruhiy holat, vajohatlanish, hayajonlanish, harakatning qo’zg’alishini tinchlantirsada, uyquga sabab bo’lmaydi. Psixosedativ dori vositalari farmakologik ta’siri bo’yicha neyroptiklar, trankvilizatorlar va sedativ vositalarga bo’linadi. (1, 167-bet)

Neyroleptiklar

Neyroleptiklarning kimyoviy tuzilishi bo’yicha tasnifi:

- Fenotiazin unumlari (aminazin, alimemazin, meterazin, etaperazin, triftazin, florfenazin va propazin)

- Trioksanten unumlari (xlorproteksin)
- Butirofenon hosilalari (galoperidol, droperidol)
- Indol unumlari (karbidin)

Ta’sir mexanizmi: neyroleptiklarning ta’sir mexanizmi qisman reticular formatsiyani susaytirishi bilan ifodalanadi. Buning natijasida retikular formatsiyada bosh miya markazlarning faoliyatini qo’zg’atadigan impulslar kuchaymaydi. Bundan tashqari, neyroleptiklar dofaminergik retseptorlar (D_2 – retseptorlarni) ni to’sib qo’yish yo’li bilan antipsixotik ta’sirni namoyon qiladi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko’ra neyroptiklarning tinchlantiruvchi xossasi ularning limbik tizi-miga va gipotalamusga ta’sir qilishiga bo’g’liqligi natijasida kelib chiqadi degan xulosalar ham mavjud. (1, 170-bet)

Trankvilizatorlar

Trankvilizator so’zi lotinchadan olingan bo’lib, “tinchlantiruvchi” degan ma’noni anglatadi.

Kimyoviy tuzilishi bo’yicha quyidagicha tasniflanadi:

- benzodiazepinlar (xlozepid, sibazon, fenazepam, nozepam);
- propandiol almashingan karbamin efirlari (meprotran);
- difenilmetan hosilalari (amizil, gidroksizin);
- har xil guruhga mansub trankvilizatorlar (oksilidin, buspiron, mebikar, stressplant).

Benzodiazepinlardan sibazonning organizmga ta’sirini ko’rib chiqamiz.

Periferik nervlarga (adrenoxolinergik tizimga) ta’sir qiladi. Tana mushaklari tonusini bo’shashtiradi. Ko’pincha shizofreniya, psixasteniya (tashvish, vahima holatlari bilan davom etadigan hollarda), nevroz va boshqa holatlarda tavsiya etiladi. Miasteniya (mushaklarning bo’shashib qolishi), glaukoma tavsiya etilmaydi. (2, 56-bet)

Sedativ vositalarga oliy nerv tizimining qo’zg’aluvchanligini pasaytiradigan, kimyoviy tuzilishi turlicha bo’lgan preparatlar kiradi. (2, 57-bet)

Antipsikotiklar va antidepressantlar kabi psixotrop dorilar ko’pincha metabolik yon ta’sirlar bilan bog’liq ta’sir ko’rsatadi. Jumladan, vazn ortishi, qandli diabet rivojlanishi bilan bo’g’liq xolatlarni namoyon qiladi. Ushbu nojo’ya ta’sirlar yuqori yurak-qon tomir kasalliklarini keltirib chiqaribgina qolmay, balki ruhiy kasallar uchun qo’shimcha patologik holatlarni namoyon qiladi. Xususan, klozapin va olanzapin sezilarli kilogramm ortishiga olib keladi va glyukoza metabolizmini buzadi. (hozirgi qandli diabetga oid sharhlar, 9-jild, 5-raqam, 2013-yil, 362-370-betlar)

Psixotrop dori vositalaridan zopikolinning organizmga ta’sirini ko’rib chiqamiz:

Preparatning savdo nomi: Zopikolin

Ta’sir etuvchi modda (XPN): zopiklon

Dori shakli: 7,5 mg li plyonka qobiq bilan qoplangan tabletkalar.

Tarkibi : Har bir plyonka qobiq bilan qoplangan tabletkaga quyidagilarni saqlaydi:

faol modda: zopiklon – 7,5 mg; yordamchi moddalar: laktoza – 28,20 mg, dikalsiy fosfati – 41,40 mg, makkajo’xori kraxmali – 49,43 mg, natriy metilparaben – 0,20 ml, natriy propilparaben – 0,05 mg, povidon K-30 – 1,12 mg, natriy kroskarmelloza – 11,10 mg, tozalangan suv – q.s., kolloid suvsiz kremniy – 20,0 ml, magniy stearati – 3,00 ml, natriy kraxmal glikolyati – 4,00 mg, tozalangan talk – 2,00 mg; plyonka qobig’i: giper-melloza 15 CPS – 2,230 mg, titan dioksidi – 0,300 mg, tozalangan talk – 0,250 mg, polietilenglikol 400 – 1,000 mg, izopropanol – q.s., metilendixlorid – q.s.

Ta’rifi: oq rangli, dumaloq, ikki tomonlama qavariq, ikki tomoni silliq, plyonka qobiq bilan qoplangan tabletkalar.

Farmakoterapevtik guruhi: uxlatuvchi vosita.

Preparat psixotrop vositalarning yangi sinfi, tuzilishi jihatdan benzodiazepinlar va barbiturat-lardan farq qiluvchi, siklopirrolonlarning vakili hisoblanadi. Zopiklonni sedativ-uxlatuvchi ta’siri markaziy nerv tizimidagi GAMK reseptor kompleksdagi bog‘lanish joylariga yuqori darajadagi yaqinligi bilan bog‘liq.

Zopikolin uyquning normal fazali strukturasi saqlab va shu bilan tez uxlash qismini kamaytir-masdan uyquning davomiyligini uzaytiradi, uning sifatini yaxshilaydi va tungi uyg‘onishlar sonini kamaytiradi.

Ichga qabul qilinganda me‘da-ichak yo‘llaridan tez va to‘liq so‘riladi. Qon plazmasidagi mak-simal konsentrasiyasi 60 ng/ml ni tashkil qiladi va uning erish vaqti qabul qilingandan keyin 1,5-2 soatni tashkil qiladi. Gistogematik to‘siqlardan, jumladan gematoensefalik to‘siqdan yaxshi o‘tadi va a‘zolar va to‘qimalarda, shu jumladan bosh miya to‘qimalarda taqsimlanadi. Yarim chiqarilish davri taxminan 5,6-6 soatni tashkil qiladi. Og‘ir buyrak yetishmovchiligida preparatni chiqarilishi sekinlashishi mumkin.

Davolash davomiyligi dozani asta-sekin kamaytirish davri bilan 4 haftadan oshmasligi kerak.

Og‘ir o‘tkir va surunkali jigar yetishmovchiligida, o‘tkir nafas yetishmovchiligida dori vosita-sini qo‘llash mumkin emas.

Alkogol mahsulotlari zopikolinning sedativ samarasini kuchaytiradi.

Zopikolin markaziy nerv tizimiga susaytiruvchi ta‘sir ko‘rsatuvchi preparatlar (morfin hosilalari, sedativ preparatlar, antidepressantlar, neyroleptiklar, barbituratlar, anksiolitiklar, baklofen, talodomid, pizotifen va boshqalar) ning ta‘sirini kuchaytiradi, bu depressiyani kuchayishiga olib kelishi mumkin. Morfin hosilalari bilan parallel qo‘llanishi nafasni to‘xtab qolish xavfini oshiradi. Zopikolon preparati shifokor ko‘rsatmasiga binoan qo‘llaniladi. (4)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Farmakologiya asoslari. N.A.Musayeva, M.N.Maxsumova, Sh.Sh.Tolipova. Toshkent “Ilm ziyo” 2014-yil.
2. Farmakologiya asoslari. M.N.Maxsumov, X.Aliyev, M.A.Odilov, N.A.Musayeva. Toshkent “Ilm Ziyo” 2016-yil.
3. <https://apteka.uz/uz/>